

BOBURIYLAR SULOLASINING INQIROZI: URDU MANBALARI ASOSIDA TIZIMLI TAHLIL

Abduvaxobova Dilnovoz O'tkir qizi

“TIQXMMI” MTU Gumanitar fanlar kafedrasi o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19568735>

Annotatsiya: Mazkur maqolada Boburiylar sulolasining inqirozi urdu tilidagi tarixiy va adabiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida siyosiy beqarorlik, iqtisodiy tanazzul, ichki nizolar va tashqi bosqinlar omillari o'rganiladi. Natijada Boburiylar inqirozi tizimli xarakterga ega bo'lgani asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Boburiylar, inqiroz, jagirdorlik, Nodirshoh, Ahmadshoh Durroniy, Podshoh yasovchilar.

Boburiylar sulolasining inqirozi tarixshunoslikda juda keng va murakkab mavzu hisoblanadi. Urdu tilidagi manbalar, ayniqsa Pokiston va Hindiston olimlarining tadqiqotlari, bu inqirozni nafaqat harbiy mag'lubiyat, balki chuqur ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy tanazzul sifatida tahlil qiladi. Urdu tilidagi tarixnavislikda Boburiylar inqirozi bo'yicha quyidagi asarlar poydevor hisoblanadi:

1. Shibli No'moniy – “Al-Ghazali” va “Aurangzeb Alamgir par ek nazar”. No'moniy imperiyaning inqirozini Avrangzebning xatolarida emas, balki undan keyingi vorislarning layoqatsizligida ko'radi.

2. Ihtisham-ud-Din – “Asaar-us-Sanadeed” (Sir Syed Ahmed Khan tahriri ostida). Dehli madaniyati va iqtisodiyoti tanazzulini yoritadi.

3. Mavlono Muhammad Ali Jauhar va Abul Kalam Azad. Ularning maqolalarida imperiyaning ma'naviy-axloqiy inqirozi siyosiy parokandalikka sabab bo'lgani ta'kidlanadi.

4. Doktor Muborak Ali Zamonaviy – tarixchi, uning “Mughal Darbar” va “Shahi Mahal” kabi asarlari inqirozni “elita qatlamining chirishi” nuqtai nazaridan tahlil qiladi.

Urdu tilidagi iqtisodiy tahlillarda “Nizom-e-Jagirdari” (Yer-mulk tizimi) inqirozi markaziy o'rin tutadi. Avrangzeb davridan keyin unumdor yerlar kamayib, saroy amaldorlari o'rtasida yer talashish kuchaygani aks etadi. Bu dehqonlarning haddan tashqari soliqqa tortilishiga va qishloq xo'jaligining inqiroziga olib keldi. Avrangzeb vafotidan (1707-yil) keyingi davr “Intishar” (parokandalik) yoki “Zaval-e-Mughlia” (Boburiylar inqirozi) davri deb ataladi. Shoh Olam, Muhammad Shoh “Rangila” kabi hukmdorlar davlat ishlaridan ko'ra ko'ngilochar hayotga berilgani, markaziy boshqaruvning viloyatlar Bengal, Avad, Haydarobod ustidan nazoratini yo'qotishiga sabab bo'ldi. Boburiylar Yevropa davlatlarida sodir bo'layotgan harbiy inqilobni e'tiborsiz qoldirishdi. Dengiz floti yo'qligi va artilleriyaning eskirgani, Britaniya Sharqiy Hindiston kompaniyasi bilan to'qnashuvlarda halokatli rol o'ynadi.

Sayid Abul A'lo Mavdudiy asarlarida inqirozni tasavvufning noto'g'ri talqini va elitadagi haddan tashqari dabdababozlik bilan bog'laydi. Jamiyatning bilim va ilm-fandan uzoqlashishi, diniy va dunyoviy muvozanatning buzilishi davlatning hayotiy kuchini so'rib olgan. Bu manbalarda Britaniya mustamlakachiligi asosiy sabab emas, balki ichki chirishning natijasi o'laroq talqin qilinishi bilan ahamiyatlidir.

Quyida Avrangzebdan keyingi inqirozning asosiy sabablarini tahlil qilamiz:

Text talashish urushlari (“Jang-e-Janashini”). Urdu tarixchisi Muborak Ali ta'kidlashicha, Boburiylarda taxt vorisligi haqida aniq qonun yo'qligi imperiyaning “belini

sindirgan”. Avrangzebning vafotidan so‘ng, uning o‘g‘illari o‘rtasidagi urushlar davlat xazinasini bo‘shatib qo‘ydi. Atigi 13 yil ichida (1707–1720) taxtga beshta hukmdor keldi va ketdi. Bu barqarorlikning yo‘qolishiga olib keldi. Xususan, Bahodirshoh I va Muhammad Shoh Rangila davrlarini qiyoslash — bu imperiyaning “so‘nggi umid uchquni” va “qaytarib bo‘lmas tanazzul” bosqichlarini solishtirish demakdir. Xafi Xonning “Muntaxab-ul-Lubab” asari tahlillarida bu ikki hukmdor davri quyidagicha qiyoslanadi:

Bahodirshoh I imperiyaning qulashini to‘xtatishga uringan so‘nggi jiddiy hukmdor hisoblanadi. U otasi Avrangzebning qattiqqo‘l siyosatidan voz kechib, yumshoq diplomatiya ya‘ni murosa yo‘lini tanladi. Muhammad Shoh davrida esa inqiroz surunkali tus oldi. U muammolarni hal qilish o‘rniga, ulardan qochishni afzal ko‘rdi. Pokiston tarixchilarining fikricha, aynan uning beparvoligi Boburiylar kuchi qayta tiklanmasligini muhrlab qo‘ydi. Bahodirshoh davrida hukmdor hali ham qaror qabul qiluvchi shaxs edi.

Muhammad Shoh davriga kelib, hokimiyat “Sayyid birodarlar” (vazirlar) qo‘liga o‘tdi. Bu davrda imperator shunchaki ramziy figuraga aylandi. Aynan shu davrda Nizam-ul-Mulk (Haydarobod asoschisi) kabi kuchli arboblardan markazdan umidini uzib, o‘z davlatlarini tuzishga kirishdilar. Qizig‘i shundaki, siyosiy inqirozga qaramay, Muhammad Shoh davri urdu tili va madaniyatining “Oltin davri” hisoblanadi. Fors tili o‘rniga urdu tili saroy tili sifatida shakllandi, she‘riyat va musiqa gullab-yashnadi. Bahodirshoh davrida esa e‘tibor ko‘proq harbiy yurishlarga qaratilgan edi.

“Podshoh yasovchilar” (Sayyid birodarlar). Urdu manbalarida “Barha ke Sayyid” nomi bilan mashhur bo‘lgan Abdulla Xon va Husayn Ali Xonning roli katta tahlil qilinadi. Ular haqiqiy “Kingmakers” (Podshoh yasovchilar) edi. Imperatorlar ularning qo‘lida qo‘g‘irchoq bo‘lib qoldi. Bu esa hukmdorning obro‘sigacha (Haqmiyat-e-Ala) putur yetkazdi va viloyat hokimlarining mustaqillik sari intilishiga yo‘l ochdi.

Iqtisodiy inqiroz va “Xalisa” yerlarining kamayishi. Urdu tilidagi iqtisodiy tadqiqotlar masalan, Irfan Habib asarlarining urducha tarjimalari shuni ko‘rsatadiki: Xalisa yerlari bevosita markaziy xazinaga daromad keltiruvchi yerlar kamayib, amaldorlarga in‘om etiladigan jogir yerlari ko‘paydi. Natijada davlat o‘z qo‘shinini boqishga pul topa olmay qoldi, askarlar maoshi berilmagani uchun isyonlar ko‘tarildi.

Mintaqaviy kuchlarning bosh ko‘tarishi. Imperiya markazda zaiflashgan bir paytda, urdu manbalari quyidagi uchta kuchning kuchayishini inqirozning yakuniy nuqtasi deb biladi:

1. Marathalar janubdan shimolga tomon kengayib, Boburiylarni faqat Dehli atrofiga qisib qo‘yishdi.
2. Sikhlar Panjobda mustaqil kuchga aylandi.
3. Mustaqil navobliklar: Bengal, Avad va Haydarobod hokimlari amalda mustaqil bo‘lib oldilar.

Tashqi bosqinlar. Boburiylar imperiyasining qulashi — bu ichki va tashqi omillarning bir vaqtda sodir bo‘lgan “halokatli to‘qnashuvi” natijasidir. Urdu tarixshunosligida, ayniqsa “Tarikh-e-Hindustan” (Hindiston tarixi) turkumidagi asarlarda, aynan tashqi zarbalar imperiyaning “so‘nggi nafasini” uzgan omillar sifatida chuqur tahlil qilinadi. Agar ichki nizolar imperiyani zaiflashtirgan bo‘lsa, Nodirshohning bosqini uning qaddini butunlay sindirdi. Urdu manbalari bu voqeani quyidagicha baholaydi:

1739-yil Eron shohi Nodirshohning Dehlini talashi imperiyaning moddiy va ma‘naviy qudratini tamomila tugatdi. Mashhur “Ko‘hi nur” olmosi va “Tovus taxti” olib ketildi. Bu voqea

“Qiyamat-e-Sughra” (Kichik qiyomat) deb ataladi. Bu haqida ma’lumotlar Mir Taqi Mir va Sauda kabi shoirlarning ijodida “Dehli fojiasi” sifatida aks etgan. Nodirshoh Dehlidan 700 million rupiyga yaqin boylikni olib ketdi. Bu o’sha davr uchun aql bovar qilmas mablag’ edi. Boburiylar armiyasining Karnal jangidagi sharmandali mag’lubiyati, imperator Muhammad Shohning asir olinishi xalq va mintaqaviy kuchlar (marathalar, sikhlar) ko’z o’ngida “Mug’allar qudrati” degan afsonaga chek qo’ydi. Shimoliy-g’arbiy hududlar (hozirgi Afg’oniston va Pokistonning bir qismi) Eron nazoratiga o’tdi.

Ahmadshoh Durraniy va Panipat jangi (1761). Nodirshohdan so’ng, uning vorisi Ahmadshoh Durraniy Hindistonga 8 marta yurish qildi. Bu yurishlar markaziy hukumatni shunchalik zaiflatdiki, Boburiy sultonlar amalda Durraniylarning “vassal”ga aylanib qoldi. Garchi Durraniy 1761-yilda Uchinchi Panipat jangida marathalarni mag’lub etgan bo’lsa-da, bu g’alaba Boburiylarga yordam bermadi. Aksincha, Hindiston egasiz qoldi.

Urdu manbalari masalan, Doktor Ishtiaq Husain Qureshi asarlari Boburiylarning eng katta xatolaridan biri sifatida dengiz qudratini e’tiborsiz qoldirganliklarini ko’rsatadi. Britaniya Sharqiy Hindiston kompaniyasi dastlab “savdogar” sifatida kelib, imperiyaning iqtisodiy tomirlarini (Bengalni) egalladi. Boburiylar o’z kuchi bilan kurashayotgan bir paytda, Yevropaliklar zamonaviy artilleriya va intizomli piyoda qo’shinlari bilan siyosiy maydonga kirdilar. 1757-yildagi Plassiy jangi amalda Boburiylar imperiyasi ustidan chiqarilgan “o’lim hukmi” edi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar shuni ko’rsatadiki, Boburiylar saltanati inqirozi birgina sabab bilan emas, balki o’zaro bog’liq omillar natijasida yuzaga kelgan. Urdu manbalari xulosasiga ko’ra, Avrangzebdan keyingi inqiroz shunchaki kuchli shaxsning yo’qligi emas, balki tizimli tanazzul edi. Davlat apparati eskirgan, armiya texnik jihatdan orqada qolgan va eng muhimi, boshqaruvchi elita shaxsiy manfaatlarni davlat manfaatidan ustun qo’ygan edi. Bu inqiroz siyosiy beqarorlik, iqtisodiy tanazzul, harbiy zaiflashuv, axloqiy inqiroz natijasida shakllangan tizimli jarayon bo’lgan.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. No’moniy.Sh. Aurangzeb Alamgir par ek nazar. – Lahore: Idara-e-Adabiyat, 1990.
2. Khan.S.A. (Sir Syed Ahmad Khan). Asar-us-Sanadid. – Delhi: 1847.
3. Azad.A.K. India Wins Freedom. – New Delhi: Orient Blackswan, 1959.
4. Ali.M. Mughal Darbar. – Lahore: Fiction House, 2005.
5. Ali.M. Shahi Mahal. – Lahore: Sang-e-Meel Publications, 2007.
6. Maududi.A.A. Islamic Way of Life. – Lahore: Islamic Publications, 1967.
7. Habib.I. The Agrarian System of Mughal India. – New Delhi: Oxford University Press, 1999.
8. Qureshi.I.H. The Mughal Empire. – Karachi: University of Karachi Press, 1967.
9. Khan.K. (Khafi Khan). Muntakhab-ul-Lubab. – Calcutta: Asiatic Society, 1869.
10. Alam.M., Subrahmanyam.S. The Mughal State. – New Delhi: Oxford University Press, 1998.